Annotatsiya: Ushbu maqolada aktivlarni sekyuritizatsiyalash va bank aktivlarini sekyuritizatsiyalash tushunchalarining iqtisodiy mohiyati va mazmuni, shuningdek, O'zbekiston tijorat banklari aktivlarining tarkibiy tuzilishi yoritilgan. Aktivlarni sekyuritizatsiyalash tushunchasining tasnifi, kredit riskini boshqa shaxsga o'tkazishning zamonaviy moliyaviy mexanizmlari va kredit riski darajasini pasaytirish vositalari tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatimizda aktivlarni sekyuritizatsiyalash amaliyotini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarurati asoslab beriladi. Maqolada tijorat banklari aktivlarini sekyuritizatsiyalash shakllari va usullarini ishlab chiqish, global sekyuritizatsiyalashgan aktivlar bozori faoliyati hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Rivojlangan mamlakatlarda aktivlarni sekyuritizatsiyalashning zamonaviy derivativ turlari o'rganilib, ularning samaradorligi baholanadi. Ipoteka bilan ta'minlangan aktivlarni sekyuritizatsiyalashning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga ta'siri va bu jarayondagi zaif jihatlar aniqlanadi. Maqolada moliya bozorida, ayniqsa, qimmatli qog'ozlar bozorida institutsional investorlar faoliyati, tijorat banklari aktivlarini sekyuritizatsiyalashni rag'batlantirish mexanizmlari va ushbu jarayon asosida muomalaga chiqariladigan qimmatli qog'ozlarni ichki va tashqi moliya bozorlarida joylashtirish imkoniyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, sekyuritizatsiyalash amaliyotining rivojlanib borishi fond bozori vositalari jozibadorligini oshirgan holda moliyalashtirishning zamonaviy manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bank balansida turgan kredit talablari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar emissiyasi orqali resurs jalb etishga qaratilgan operatsiyalar bank aktivlarini sekyuritizatsiyalashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'riladi. Mamlakatimizda sekyuritizatsiyalash amaliyotining rivojlanishi uchun zarur infratuzilma, bank nazorati va yagona tizimga keltirilgan reyting agentligi faoliyati muhim o'rin tutadi. Shuningdek, O'zbekistonda aktivlarni sekyuritizatsiya qilish amaliyotining istiqbollari, servis xizmatlari agenti vazifasini boshqaruvchi agentlar tomonidan bajarilishi, kredit portfelining minimal miqdori va xorijiy tajriba asosida bu jarayonni takomillashtirish masalalari ochib berilgan. Sekyuritizatsiya doirasida emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarning investitsion jozibadorligini oshirish, maxsus moliyaviy instrumentlardan foydalanish orqali bank aktivlarini optimallashtirish va risklarni kamaytirish imkoniyatlari baholangan. Xususan, ushbu operatsiyalar orqali kredit risklarini va kredit mablag'lari qiymatini sezilarli darajada pasaytirish mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, bank aktivlari, aktivlarni sekyuritizatsiyalash, sekyuritizatsiya, kredit riski.

Abstract: In the article, the economic essence and meaning of the concepts of asset securitization, securitization of banking assets, the structural structure of assets of commercial banks in Uzbekistan, the classification of the concept of asset securitization, the classification of modern financial mechanisms for transferring credit risk to another person, the means of reducing the level of credit risk, the regulatory framework for the introduction and development of asset securitization in our country, improving the legal framework, developing and improving the forms and methods of securitization of assets of commercial banks, the activities of the world market for securitized assets and their characteristics, the study of modern derivative types of asset securitization in developed countries and determining their effectiveness, the global financial and economic crisis of asset securitization, secured by mortgages, to assess the impact on the emergence and in this process of identifying weaknesses that caused the crisis, the activities of institutional investors in the financial market, in particular the securities market, mechanisms to promote the securitization of assets of commercial banks, the possibility of placing



securities issued for the purpose of securitization of assets in the domestic and foreign financial markets, the development of the practice of securitization of assets from modern sources of financing based on increasing the attractiveness of stock market instruments aspects of use, securitization bank assets in operations to raise resources based on the issuance of securities secured by credit claims on the bank's balance sheet, infrastructure for the development of securitization practice in our country, banking supervision, the role of a rating agency brought into a single system, prospects for the development of asset securitization practice in Uzbekistan, service services The minimum loan amount for a portfolio in which managing agents also act as an agent drug, foreign experience in the securitization of banking assets and the prospects for its use in the economy of our republic, increasing investment the attractiveness of securities issued as part of securitization and determining the possibility of reducing risks by optimizing bank assets based on the use of special financial instruments, aspects of securitization operations, credit risks and a significant decrease in the cost of credit funds, as well as ways to develop the practice of asset securitization are disclosed.

Key words: commercial banking, bank assets, asset securitization, securitization, credit risk.

Аннотация: В статье экономическая сущность и значение понятий секьюритизации активов, секьюритизация банковских активов, структурная структура активов коммерческих банков Узбекистана, классификация понятия секьюритизации активов, классификация современных финансовых механизмов передачи кредита риск другому лицу, средства снижения уровня кредитного риска, нормативная база внедрения и развития секьюритизации активов в нашей стране совершенствование нормативно-правовой базы, разработка и совершенствование форм и методов секьюритизации активов коммерческих банков, деятельность мирового рынка секьюритизированных активов и их характеристики, изучение современных производных видов секьюритизации активов в развитых странах и определение их эффективности, глобальный финансово-экономический кризис секьюритизации активов, обеспеченных ипотекой, для оценки влияния на возникновение и в этом процесс выявления слабых мест, вызвавших кризис, деятельность институциональных инвесторов на финансовом рынке, в частности, рынке ценных бумаг, механизмы содействия секьюритизации активов коммерческих банков, возможности размещения ценных бумаг, выпущенных с целью секьюритизации активов, на внутреннем и внешнем финансовых рынках, развитие практики секьюритизации активов из современных источников финансирования на основе повышения привлекательности инструментов фондового рынка аспекты использования, секьюритизации банковских активов в операциях по привлечению ресурсов на основе выпуска ценных бумаг под залог кредитных требований на баланс банка лист, инфраструктура развития практики секьюритизации в нашей стране, банковский надзор, роль рейтингового агентства, приведенные в единую систему, перспективы развития практики секьюритизации активов в Узбекистане, сервисные услуги Минимальная сумма кредита портфелем, в котором управляющие агенты также выполняют роль агента препарат, зарубежный опыт секьюритизации банковских активов и перспективы его использования в экономике нашей республики, повышение инвестиционной привлекательности ценных бумаг, выпущенных в рамках секьюритизации и определение возможности снижения рисков за счет оптимизации банковских активов на основе использования специальных финансовых инструментов, раскрыты аспекты операций секьюритизации, кредитных рисков и существенного снижения стоимости кредитных средств, а также пути развития практики секьюритизации активов.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, активы банков, секьюритизация активов, секьюритизация, кредитный риск.

KIRISH

Yaqin o'tmishda yuz bergan global moliyaviy inqiroz xalqaro moliya bozorlarida sekyuritizatsiyalashgan vositalarga bo'lgan investitsion talab hajmining keskin qisqarishiga sabab bo'ldi. Biroq so'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti va moliya tizimining inqirozli jarayonlar ta'siridan muvaffaqiyatli o'tishi, o'z navbatida, aktivlarni sekyuritizatsiyalashni takomillashtirish doirasida yangi turdagi sekyuritizatsiyalash vositalari emissiyasining yo'lga qo'yilishi mazkur amaliyotni qayta faollashuviga zamin yaratdi.

Xususan, "2018-yilning birinchi yarmida xorijiy mamlakatlar tomonidan sekyuritizatsiyalash doirasida amalga oshirilgan jami birlamchi emissiyalar hajmi 2017-yilning mos davriga nisbatan 11,2 foizga oshgani holda, 1 trln. 50 mlrd. AQSh doll.ni tashkil etdi" [1]. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda sekyuritizatsiyalashgan bitimlarda xalqaro moliya-kredit institutlari tomonidan qo'llanilayotgan innovatsion operatsiya va amallarning mamlakatlar moliya tizimiga to'liq joriy etilmaganligi, mazkur sohani takomillashtirishning xalqaro darajadagi zarurati va dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda tijorat banklari aktivlarini sekyuritizatsiyalash shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda: global sekyuritizatsiyalashgan aktivlar bozori faoliyati va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish; rivojlangan mamlakatlarda aktivlarni sekyuritizatsiyalashning zamonaviy derivativ turlarini o'rganish va ularning samaradorligini aniqlash; ipoteka bilan ta'minlangan aktivlarni sekyuritizatsiyalashning jahon moliyaviy-iqtisodiy



inqirozini keltirib chiqarishdagi ta'sirini baholash va bu jarayonda inqirozga sabab bo'lgan zaif jihatlarni aniqlash; aktivlarni sekyuritizatsiyalash amaliyotini nafaqat AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Gollandiya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Avstriya, Yaponiya va Kanada kabi rivojlangan mamlakatlar doirasida, balki moliya bozorlari endigina rivojlanayotgan mamlakatlar miqyosida ham o'rganish.

O'zbekiston Respublikasida "bank va moliya tizimida islohotlarni jadal davom ettirish, sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini keng joriy etish zarur" [2] ekanligi muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Hozirda tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash amaliyotidan foydalanilmasligi quyidagi muammolar bilan izohlanadi: mamlakatda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi va bu bozorning hozirda moliyaviy resurslarni taqsimlash hamda qayta taqsimlash funksiyasini bajara olmayotganligi; moliya bozorida institutsional investorlar faoliyatining sust yo'lga qo'yilganligi; shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorida ularning umuman ishtirok etmasligi; aktivlarni sekyuritizatsiyalash bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarning deyarli yo'qligi va bu faoliyatni rag'batlantirish mexanizmining ishlab chiqilmaganligi; aktivlarni sekyuritizatsiyalash hisobiga muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni ichki va tashqi moliya bozorlarida joylashtirish imkoniyatining o'ta pastligi; moliya bozori infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xususan investitsion vositachilar institutining shakllanmaganligi.

Keltirilgan bu kabi muammo va kamchiliklar aktivlarni sekyuritizatsiyalashning nazariy-huquqiy asoslarini shakllantirish va amaliy jihatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini kun tartibiga qo'yadi. Bu esa tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari aktivlarini sekyuritizatsiyalash jarayonining konseptual asoslari, uning funksiyalari, shakl va tamoyillari bo'yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislar o'zlarining tadqiqotlarida hamda xalqaro konferensiyalarda fikr va munozaralarini bayon etganlar.

"Aktivlarni sekyuritizatsiyalash" atamasining iqtisodiy tushuncha sifatida shakllanishi 1977–yilda Anna Monroning Wall Street Journal gazetasida chop etilgan "ko'cha mish-mishlari" sarlavhali satrlaridan boshlangan [20].

"Amerika Banki emissiyasi" (Bank of America issue) deb nom olgan bitim "Solomon Brothers" banki bilan amalga oshirilgan. Aynan "Solomon Brothers" bankining ipoteka departamenti direktori Lyuis Ranieri ipoteka kreditlari bo'yicha "talab qilish huquqi garovi" asosida ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish jarayonini o'rganganda, Wall Street Journal nashriga bergan intervyusida "sekyuritizatsiya" tushunchasini kiritishni taklif etgan [5].

P.S. Rouzning fikricha, "sekyuritizatsiya – nolikvid qarzlarni likvidli aktivlarga aylantirish jarayonidir" [28].

Iqtisodchi olim X.P. Ber o'z tadqiqotlarida aktivlarni sekyuritizatsiyalashga quyidagi xususiyatlarni xos deb belgilagan: tabaqalashgan aktivlarning kredit tashkiloti yoki boshqa korxona balansidan chiqarilishi; aktivlarning maxsus tashkil etilgan yuridik shaxsga berilishi orqali yuridik mustaqillikka ega bo'lishi; qimmatli qog'ozlarni chiqarish yo'li bilan xalqaro pul vositalari bozorida uning qayta moliyalashtirilishi amalga oshirilishi [9].

S. Shvars o'z tadqiqotlarida aktivlarni sekyuritizatsiyalashni "sekyuritizatsiya tashkilotchisiga xos bo'lgan xavflarni bartaraf etish maqsadida sekyuritizatsiya tashkilotchisining debitorlik qarzдорligining to'liq yoki bir qismini ajratish yo'li bilan investitsiyalar bozorida kam xarajat evaziga moliyalarni jalb qilish" sifatida ta'riflaydi [3].

Shuningdek, N.V. Aleksandrova esa aktivlarni sekyuritizatsiyalash amaliyotiga nisbatan quyidagi ta'rifni bergan: "sekyuritizatsiyalashning tashabbuskorida mavjud muayyan aktivlarni tashabbuskor balansidan ko'chirish, keyinchalik mazkur aktivlar ta'minotida qimmatli qog'ozlar emissiya qilish va ularni keng investorlar o'rtasida joylashtirish asosida yangi maxsus tashkil etilayotgan tashkilotlarga beriladigan tabaqalashtirilgan moliyaviy aktivlar ko'rinishiga o'tkazish bosqichlaridan iborat moliyalashtirishning innovatsion uslubi" [12].

Yuqorida keltirilgan olimlar ta'riflarini har tomonlama tahlil qilgan holda quyidagi mualliflik ta'rifi shakllantirildi: "Bank aktivlarini sekyuritizatsiyalash – bu bank balansida turgan kredit talablari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar emissiyasi negizida resurs jalb etishga qaratilgan operatsiyalardir".

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maqolada tizimli yondashuv, tahlil va sintez, funksional va qiyosiy tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, prognozlash, mantiqiy xulosalash, statistik ma'lumotlarni taqqoslash kabi usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aktivlarni sekyuritizatsiyalash amaliyotining rivojlanib borishi fond bozori vositalari jozibadorligini oshirish orqali moliyalashtirishning zamonaviy manbalaridan foydalanishni taqozo etadi. Bu, o'z navbatida, moliyaviy amaliyotlar bilan bog'liq risklarni boshqarishning samarali mexanizmini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.



Kredit tashkiloti, emitent bankrot bo'lgan vaqtda, aktivlarga nisbatan uning egasining birinchi navbatdagi talablarini kafolatlovchi obligatsiya emissiyasi jarayonini amalga oshiradi (1-rasm).



1-rasm. Bank aktivlarini balansli sekyuritizatsiyalash bitimi Manba: mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.


Bu yerda:

1. Qarz oluvchilarga kreditlarni berish. 2. Kreditlar bo'yicha kelgusi tushumlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish. 3. Investorlar tomonidan qabul qilingan qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish. 4. Qarz oluvchi tomonidan kredit bo'yicha hisoblangan foizlar va asosiy qarzning bir qismini to'lash. 5. Kupon daromadlari bo'yicha to'lash va qimmatli qog'ozlarning nominal qiymatini qisman qoplash. 6. Bank bankrot bo'lgan hollarda kreditlar bo'yicha talab huquqini investorlarga berish. 7. Investorning kreditlar bo'yicha talab huquqi asosida qarz mablag'larini olishi.

Shuni ta'kidlash kerakki, faqat yuqorida sanab o'tilgan uchta tavsif mavjud bo'lgan taqdirdagina aktivlarni sekyuritizatsiyalash kabi moliyaviy transaksiyani aniq shakllantirish mumkin. Ushbu tasniflardan birining yo'qligi yoki bitimning yuqorida keltirilgan belgilarga to'liq muvofiq bo'lmashligi "aktivlarni sekyuritizatsiyalash" atamasini qo'llash imkoniyatini bermaydi.

Shuni qayd etish lozimki, mazkur transaksiyani aktivlarni sekyuritizatsiyalash uslubiyotiga kiritish mumkin emas, chunki aktivlar zaklad varaqlarni emissiya qiluvchi ipoteka bankining balansida saqlanmoqda. Risklar taqsimlanmagan, varaqalarni chiqarish bo'yicha ta'minot kredit instituti mol-mulki hisobiga bog'langan. Istiqbolda emissiya qilinayotgan zaklad varaqlariga nafaqat aktivlar bo'yicha to'lovlar oqimlari, balki butun kredit tashkilotining moliyaviy oqimlari orqali xizmat ko'rsatiladi. Keltirilgan sabablarga ko'ra, Amerikada ipoteka obligatsiyalari emissiyasi (*Mortgage-Backed Bonds*) amaliyotini aktivlarni sekyuritizatsiyalash sifatida tasniflash mumkin emas. Bunda shuni alohida ta'kidlash lozimki, bank aktivlarini sekyuritizatsiyalash klassik ma'noda – bu, shubhasiz, qimmatli qog'ozlarni chiqarish yordamida balansda aks ettirilmagan bank aktivlarini kapital bozorlariga yo'naltirish orqali sekyuritizatsiyalashdir.

Tadqiqot predmetini aniq ajratib olish uchun, turli adabiyot manbalarida qo'llanilayotgan aktivlarni sekyuritizatsiyalash tushunchasini tasniflash zarur. Mazkur rasm bank aktivlarini sekyuritizatsiyalashning boshqa mumkin bo'lgan sekyuritizatsiyalashgan operatsiyalarni amalga oshirish variantlari orasidagi farqni yaqqol ko'rsatadi. Shu bilan birga, e'tibor berish lozimki, bu yerda turli xil – ham sintetik, ham an'anaviy bitimlar modellari mavjud bo'lishi mumkin. Nobank aktivlarni sekyuritizatsiyalashni esa nafaqat bank kreditlari, balki fond bozorlaridan moliyalashtirishni jalb qilish orqali ham amalga oshirish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Aktivlarni sekyuritizatsiyalash tushunchasi tasnifi Manba: mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda sekyuritizatsiya turli davlatlar iqtisodchilari tomonidan keskin tanqidga uchrab kelmoqda. Bu holat mazkur moliyaviy vositaning ommaviylashishi va nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Inqiroz natijasida investitsiyalar bozori uzoq vaqt davomida "turg'un" holatga tushib qoldi. Bugungi kunda esa aktivlarni sekyuritizatsiyalash tez rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Sekyuritizatsiyaning muvaffaqiyatli qo'llanilishi hududiy banklarni milliy va global investitsiyalar bozori bilan birlashtirib, fondlashtirish imkoniyatidan foydalanish sohasida geografik va hududiy tabaqalanishni kamaytiradi.


Kredit riski darajasini pasaytirish vositalari ko'rib chiqilganda, innovatsion moliyaviy vositalar – ya'ni aktivlarni sekyuritizatsiyalash va birjadan tashqari bozorda muomalada bo'ladigan hosilaviy derivativlar – alohida tadqiq etilishi lozim. Iqtisodchi olim Syuzan Bies o'z tadqiqotlarida innovatsion moliyaviy munosabatlar rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch sifatida tarkibiy moliyaviy vositalarning yetakchi o'rni haqida ta'kidlaydi [30].

Ushbu o'ziga xos xususiyat tarkibiy moliyaviy vositalar – xususan, aktivlarni sekyuritizatsiyalash va kredit derivativlari – kredit riskini jilovlash vositalari sifatida alohida tarmoqqa ajratilishi zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotda klassik moliyaviy vositalarning strukturaviy tahlili, shuningdek tarkibiy moliyalashtirish jarayonlari chuqur o'rganildi. Keng ma'noda "tarkibiy moliyalashtirish" moliya resurslarini jalb qilish jarayonini anglatadi, bunda emissiya qilinayotgan qarz vositalarining kredit sifati emitentning kredit sifatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emasligi aniqlangan. Fikrimizcha, tarkibiy moliyaviy vositalar tarkibiga kredit riskini boshqa shaxsga o'tkazish mexanizmini ham kiritish lozim. Ushbu aniqlik asosida, sekyuritizatsiyalash va kredit derivativlarini aynan ana shunday mexanizmlar turkumiga kiritish mumkin.

Tarkibiy moliyaviy vositalar haqidagi yuqoridagi rasmda keltirilgan ma'lumotlarni ikkita asosiy sabab kesimida tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. Birinchi sabab – kredit riskiga ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega, umumiy tipologik asoslarda shakllangan vositalar sifatida sekyuritizatsiyalash va kredit derivativlarining uzviy bog'liqligi bilan bog'liq. Ikkinchi sabab esa "tarkibiy moliyaviy institutlar" va "sekyuritizatsiyalash" tushunchalarini o'zaro farqlash, shuningdek "kredit riskini boshqa shaxsga o'tkazish mexanizmlari" kabi mustaqil tushunchalarga ajratish imkoniyatini beradi.

Hosil bo'ladigan kredit derivativlari va bank aktivlarini sekyuritizatsiyalashning o'zaro o'xshash xususiyatlarini o'rganish asosida, fikrimizcha, kredit riski darajasini jilovlash vositalarining ikkinchi mezon – moliyaviy vositalar turi – alohida ko'rib chiqilishi zarur. Bu esa bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan taklif etilgan boshqaruv vositalari tipologiyasini chuqurroq tahlil qilish imkonini yaratadi.

Aktivlarni sekyuritizatsiyalash jarayoni tartibini ishlab chiqishda biz bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tamoyillari va Gyunter Fonbaerning tadqiqotlariga tayandik. 3-rasmda sekyuritizatsiyalash jarayonining asosiy ishtirokchilari keltirilgan. Yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarning har bir ishtirokchisiga quyida tavsif berib o'tamiz (3-rasm):



←---→ – Комиссион xxxхаражатлар.

3-rasm. Sekyuritizatsiyalash jarayonining tuzilmaviy modeli Manba: mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.

Izoh. 1. IYuShni tashkil etish; 2. Fondlashtirish; 3. Aktivlarni ishonchli boshqarish bo'yicha kelishuv; 4. Qarz qimmatli qog'ozlar bo'yicha qarz; 5. Qarz qimmatli qog'ozlar emissiyasi; 6. Qarz qimmatli qog'ozlar emissiyasi



hisobiga fondlashtirish; 7. Emissiyani tashkil etish bo'yicha kelishuv; 8. Aktivlarni shakllantirish; 9. Qarzga xizmat ko'rsatish; 10. Shartnoma bo'yicha mukofot; 11. Kredit derivativni sotish, defolt holatida to'lash; 12. Reyting berish bo'yicha kelishuv.


Tashabbuskor (*originator*) – aktivlarni shakllantiruvchi yuridik shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ko'pincha ushbu rol ni moliyaviy aktivlarga ega bo'lgan tijorat banklari bajaradi. Asosan, tijorat banklari ipoteka kreditlarini sekyuritizatsiyalashda tashabbuskor sifatida ishtirok etadi.

Debitorlar (*debtors*) – tashabbuskor bilan munosabatga kirishgan yuridik yoki jismoniy shaxslardir. Aynan ular tufayli tashabbuskor oldida moliyaviy majburiyatlar yuzaga keladi.

Hozirda mamlakatimizda aktivlarni sekyuritizatsiyalashga ruxsat beruvchi yagona hujjat – bu O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2009-yil 16-iyuldagi 2009-40-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalarini" to'g'risidagi hujjatdir. Unda banklar tomonidan berilgan kreditlar va boshqa aktivlar ta'minotida obligatsiyalar ko'rinishida qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarish mumkinligi belgilangan.

Ushbu hujjatga asosan tijorat banklarining aktivlarini sekyuritizatsiyalash imkoniyati mavjud. Biroq, bugungi kunda, bizning fikrimizcha, mamlakatimizda aktivlarni sekyuritizatsiyalashni joriy etish va rivojlantirish uchun ushbu hujjat yetarli emas. Bu esa, me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda tijorat banklarining aktivlari hajmi jadal sur'atlarda oshib bormoqda. Xususan, tijorat banklarining jami aktivlari hajmi 2018-yilning mos davriga nisbatan 28,7 foizga oshgan holda, 2019-yil 1-yanvar holatiga 214,4 trln so'mni tashkil etdi. Shu o'rinda 2018-yilda bank aktivlari tarkibida kreditlarning ulushi sezilarli darajada ortganini ko'rish mumkin (4-rasm).



Manba: mualliflar tomonidan ishlab chiqildi


4-rasm. 2017-2018-yillarda O'zbekiston tijorat banklari aktivlarining tarkibiy tuzilishi, foizda.

4-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kredit qo'yilmalarining O'zbekiston Respublikasi bank tizimi umumiy aktivlari hajmidagi ulushi 2017-yil 1-yanvardagi 61,9 foizdan 2019-yil 1-yanvar holatiga kelib 76,8 foizgacha oshgan. Bu jarayonda, ayniqsa, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi 2018-yilning ikkinchi yarmida jadal sur'atlarda ortganligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Sekyuritizatsiyani amalga oshirishda tijorat banklari ulushining ortib borayotganiga qaramay, 2018-yilda ipoteka qimmatli qog'ozlarining sekyuritizatsiyadagi ulushi atigi 19,5 foizni tashkil etgan. Sekyuritizatsiya jarayonining asosiy qismi hukumatning bir qator yetakchi agentliklari tomonidan amalga oshirilmoqda. Xususan, ta'minlangan ipoteka qimmatli qog'ozlarini hukumat kafolati ostida emissiya qiluvchi agentlik sifatida Federal Milliy Ipoteka Assotsiatsiyasini keltirish mumkin. Shuningdek, sekyuritizatsiyalashning 12,5 foizini aktivlar bilan



ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (ABS) tashkil etadi, ular o'z ichiga ta'minlangan qarz majburiyatlari (CDO)ni ham oladi. Bundan tashqari, 8,9 foizlik ulush tijorat ipotekalari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (CMBS) hamda turar-joy ipotekalari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (RMBS) hissasiga to'g'ri keladi. Hukumat agentliklari ishtirokisiz amalga oshirilgan sekyuritizatsiya turlari esa jami 10,9 foiz ulushga ega (5-rasm).



Manba: mualliflar tomonidan ishlab chiqildi

* – (** + ***).

** – «Fannie Mae», «Freddie Mac» va «Federal Home Loan Bank»ning kafolatiga ega bo'lmagan, ипотека kreditlari ta'minotiga asoslangan xususiy qimmatli qog'ozlar.

*** – Hukumat kafolati asosida «Fannie Mae», «Freddie Mac» va «Federal Home Loan Bank» tomonidan emissiya qilingan obligatsiya va veksellar.

5-rasm. AQShda sekyuritizatsiyalash doirasida qilingan ikkilamchi emissiya hajmi, qimmatli qog'ozlar turi (trln. AQSh doll.)

5-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2009-yilgacha bo'lgan davrda sekyuritizatsiyalash amaliyoti uchun barcha turdagi ипотека qimmatli qog'ozlari emissiyasidan foydalanilgan bo'lsa, aynan 2009-yildan boshlab AQSh hukumati «Fannie Mae», «Freddie Mac» va «Federal Home Loan Bank» tomonidan emissiya qilingan obligatsiya va veksellar hukumat kafolati ostida ekanligini e'lon qilgan. Shuningdek, 2009-yilga kelib hukumat kafolati ostidagi «Ta'minlangan qarz majburiyatlari» hajmi ham keskin oshgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi bugungi kunda sekyuritizatsiyalash amaliyotini rag'batlantirish muhim va zarur ekanligini ko'rsatmoqda. Mazkur chora-tadbirlar sekyuritizatsiya doirasida emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarning umumiy investitsion jozibadorligini shakllantiradi va dastlabki bosqichda katalizator vazifasini bajaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari aktivlarini sekyuritizatsiyalash amaliyotini rivojlantirish bo'yicha quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

Aktivlar sekyuritizatsiyasi jarayonida ishtirokchilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tashkil etishda: originator va maxsus xo'jalik yurituvchi tashkilot (MXT) o'rtasidagi munosabatlarda sekyuritizatsiya uchun mo'ljallangan aktivlarni originator balansidan ajratish va MXTga sotish, originator va MXT o'rtasida originatorning servis xizmatlari agenti sifatida faoliyat yuritishi bo'yicha «topshiriq shartnomasi»ni tuzish; servis xizmatlari agenti vazifasini boshqaruvchi agentlar ham bajarishi maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi, shuningdek, bu bozorning moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyalarini bajara olmayotganligi sababli tijorat banklarida sekyuritizatsiyalash amaliyoti hanuz yo'lga qo'yilmagan. Mazkur amaliyotni tijorat banklari faoliyatiga joriy



etish quyidagi ustuvor vazifalarning bajarilishiga bevosita bog'liq: – moliya bozorida, xususan, qimmatli qog'ozlar bozorida institutsional investorlar faoliyatini yanada jadallashtirish lozim; – tijorat banklari aktivlarini sekyuritizatsiyalashning me'yoriy-huquqiy ta'minotini shakllantirish va mazkur faoliyatni rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish zarur; – aktivlarni sekyuritizatsiyalash hisobiga muomalaga chiqariladigan qimmatli qog'ozlarni ichki va tashqi moliya bozorlarida joylashtirish imkoniyatlarini o'rganib chiqish va uni yo'lga qo'yish lozim; – investitsion vositachilar institutini shakllantirish orqali moliya bozori infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarur.

Yevropa qimmatli qog'ozlar bozori AQSh qimmatli qog'ozlar bozoridan aktivlar xilma-xilligi va davlat sektorining to'g'ridan-to'g'ri ishtirokiga ko'ra farq qiladi. Yevropa mamlakatlarida sekyuritizatsiyalashning yo'lga qo'yilishiga asosiy sabablardan biri – mazkur mexanizm qat'iy cheklovlar va raqobat sharoitida ham tijorat banklariga o'z mablag'larini optimal boshqarish imkoniyatini berishidir.

Mamlakatimizda sekyuritizatsiyalash amaliyoti rivojlanishining eng muhim omili – infratuzilma bo'lib, uning elementlari sifatida mamlakat qonunchiligiga muvofiq bo'lgan sekyuritizatsiyalash bitimlarining ta'minoti, bank nazorati, yagona tizimga keltirilgan reyting agentligi, shaxsiy investitsion bazaning mavjudligi lozim. Bundan tashqari, kredit portfelining minimal miqdori, jahon moliya maydonlarida mashhur emasligi, hattoki yirik bo'lmagan kredit tashkilotlari tomonidan mazkur texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari uchun kredit reytingiga ega bo'lmisligi kabi salbiy omillar sharoitida bank ssudalarini sekyuritizatsiyalashni amalga oshirish uchun asosli yondashuv talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, sekyuritizatsiyalash – bank faoliyatining samaradorligini oshirish va maxsus moliyaviy instrumentlardan foydalanish asosida bank aktivlarini optimallashtirish orqali risklarni pasaytirish imkoniyatini beruvchi jarayon sifatida izohlanadi. Sekyuritizatsiyalash operatsiyalari nafaqat kredit risklarini boshqaruvchi banklar uchun, balki kredit mablag'lari qiymatini pasaytirishdan manfaatdor bo'lgan mijozlar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. James M., Schopfloch T.. Global Securitization On Pace For \$1 Trillion In 2018. «Standard and Poor's Global Ratings» / GLOBAL STRUCTURED FINANCE RESEARCH. July 24, 2018.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь. – www.uza.uz
3. Schwarez L. The Aichemy of Asset Securitization: Standford Journal of Lo, Business & Finance (2004). P.136.;
4. Peris H., Hartwood E. 2011 capital access index securitization in financing economic activities/Sangeetha Malaiyandi, Donald McCarthy, Triphon Phumiwasana and Glenn Yago. –New York: Milken Institute, 2011. –P. 65.;
5. James Gill. Why Does Securitization Exist? – scientific article (on-line journal). p. 4.;
6. Andreas (Andy) Jobst. What is structured finance? / Andreas Jobst // BIS Review. – 2011.- №20.-P.17.;
7. James R. Barth. Tong Li, Sangeetha Malaiyandi, Donald McCarthy: 2013 capital access index securitization in financing economic activities;
8. Khrapchenko Lyudmilla (Alfa-Bank), Jimm Patti (Brown, Rowe&Maw LLP) "Alfa-Bank's DRP Securitization";
9. Бэр Х.П. Секьюритизация активов: секьюритизация финансовых активов – инновационная техника финансирования банков / Пер. с нем. Ю.А.Алексеева., О.М.Иванова. М.: Волтере Клувер, 2009.;
10. Роуз П. Банковский менеджмент – пер. с англ. – М.: Дело; 1997. – С. 709.;
11. Фабоцци Ф.Д. «Рынок облигаций: Анализ и стратегии» Фрэнк Дж.Фабоцци; Пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес.
12. Александрова Н.В. Понятие и виды секьюритизации // Финансы и кредит. 2007. № 5.;
13. Усоскин В. Современный коммерческий банк: управление и операции. М.: 2010. –С.292.;
14. Рачкевич А.Ю., Алексеева И.А. Секьюритизация: характерные признаки и определение // Деньги и кредит. 2008. № 8.;
15. Суханов М.С. Все что нужно знать о секьюритизации активов банками / Суханов М.С., Богданов А.Е. // Бухгалтерия и банки. 2012. - № 10. – С. 31-34.;
16. Тяжлов М.Г. Практический опыт секьюритизации кредитов в РФ. – материалы Клуба банковских аналитиков. Секция Банковские инновации, 2012.
17. Бутиков И.Л. Рынок ценных бумаг Узбекистана: проблемы формирования и развития. – Ташкент: Консультинформ, 2008.;
18. Жумаев Н.Х. Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2008. – 37 б.;
19. Ғоziбеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати –Т., 2002. –41б.;
20. Каримов Н.Г., Ташходжаев М.М. Prospects of development of securitization of banking assets in Uzbekistan. / Austrian Journal of Humanities and Social Sciences № 9–10. 2016. September–October. –p. 72.;
21. Котов В.А. Организация рынка ценных бумаг. – Т.: Молия, 2007. – 23 с.;
22. Ли А.А. Международный опыт развития муниципальных ценных бумаг и его применение в условиях Узбекистана: автореферат дисс... к.э.н. – Ташкент, 2002. – 20 с.;



23. Ақромов Х.М. Ўзбекистон Республикаси қимматли қўғозлар бозорининг ривожланишига макроиқтисодий сиёсатнинг таъсири: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2010. – 22 б.;
24. Хусанов Н.Ж. Развитие фондового рынка Республики Узбекистан на современном этапе // Материалы международной научно-практической конференции «Пятнадцатые международные Плехановские чтения». – М.: 2002. – С.116-118.;
25. Халиқов У.Р. Ўзбекистонда фонд бозори орқали инвестицион фаолиятни молиялаштиришни такомиллаштириш: PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2017. – 55 б.;
26. Мурадова Л.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётини модернизациялаш шароитида тижорат банклари активлари даромадлилигини ошириш йўллари: PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.:, 2018. – 56 б.;
27. Мўминова М.Б. Тижорат банклари актив операцияларини бошқариш стратегиясини такомиллаштириш: PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.:, 2018. 57 б.
28. Роуз П. Банковский менеджмент – пер. с англ. – М.: Дело; 1997. – С. 709.
29. Александрова Н.В. Понятие и виды секьюритизации // Финансы и кредит. 2007. № 5.
30. Bies S. Strengthening compliance through effective corporate governance. Remarks at the annual regulatory compliance conference. 11.06.2012.
31. The international comparative legal guide to securitization 2005 / Global Legal Group Ltd. – London: William Clowes Ltd., 2011.
32. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий веб сайти (www.cbu.uz) маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.
33. <https://www.sifma.org> маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
